



XALQ ERTAKLARIDA YALMOG'IZ OBRAZI

Lobar Allamberganova,

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O'zbek tili
va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi*

***Annotatsiya:** Badiiy talqin tasvir ruhiyatidan ifoda mustaqilligiga o'tadigan zinapoya vazifasini bajaradi. Unda semantik maydon miqyosi sifat uzvi mushtarakligi vazifadoshlikka tayanadi. Aslida umumiy mohiyat mavhumlik daraja ko'rsatkichini dalolatlaydi. Mifo-badiiy talqin taraqqiyoti insoniyat bilimlari va amaliy malaka tajribalariga tayanadi.*

***Kalit so'zlar:** badiiy talqin, mifologik qarashlar, mohiyat, yalmog'iz obrazi, tarixiy ertak.*

Mifologik talqin hayotiy ehtiyoj hosilasi, u real borliqda namoyon hodisotning tasavvurga ko'chgan hamda evrilgan ifodasini dalolatlaydi. To'g'rirog'i, makon va zamon o'lchamida materiya harakati ko'p qiyofalilik mohiyatini shakllantiradi. Aslida motivizatsiya zamirida mifologik ifoda va badiiy mohiyat yaxlitlashadi. Badiiy mifolog hayotiy idrok-badiiy timsol-ijodiy aqida bosqichlari muntazamligini jipslashtiradi. Hayotiy idrok silsilasi voqelik ob'ektiv daxlsizligini ta'minlaydi, badiiy ong makon va zamonda real salmoq kasb etadi, nuqtai nazar va hodisot ziddiyati ijodiy g'oyani ilgari suradi. Ayon bo'ladiki, uchlik zamirida universal mohiyat hosil bo'ladi.

Badiiy talqin tasvir ruhiyatidan ifoda mustaqilligiga o'tadigan zinapoya vazifasini bajaradi. Unda semantik maydon miqyosi sifat uzvi mushtarakligi vazifadoshlikka tayanadi. Aslida umumiy mohiyat mavhumlik daraja ko'rsatkichini dalolatlaydi. Mifo-badiiy talqin taraqqiyoti insoniyat bilimlari va amaliy malaka tajribalariga tayanadi. Unda tarixiy ilg'am, intellektual salohiyat, tafakkur ma'rifati va qadriyaviy mezon o'zaro raqobatga kirishadi. Shu ma'noda, mifopoetik tahlil lug'aviy tushunchadan moddiy-ma'noviy shaklga o'tish miqyoslari bilan izohlanadi. Aynan, ijodiy g'oyaning morfologik va sintaktik xususiyatlarini mutlaqlashtirish aslo mumkin emas. U umumestetik takomildan badiiy xoslanganlik darajasi qadar masofada erkin harakatlanadi. Qahramon taqdiri mantiqiy bog'lanishi, ma'no uzviyligini o'zbek xalq ertaklarida ham kuzatish mumkin.

Ertaklarda har bir xalqning asrlar davomidagi tarixiy takomilida o'ziga xos andozalari shakllanadi. Bu jarayonda ijodiy yondashuv ikkinchi o'ringa tushib qoladi. Aniqrog'i, mazkur holatda xalq tafakkuriga mansub (garchand turfa avlodlarda qayta ishlangan bo'lsa-da) konstruksiyalar poetik an'ana tusini oladi. Shunga o'xshash vaziyat badiiy tasvir usulida ham kuzatiladi. Ba'zi ertaklarda axborot maydoni estetik bosimi ustuvorlik qilsa, ikkinchisida g'oyaviy aqidaga moyillik ko'zga tashlanadi. Dastlabki talqinda so'zning hissiy tuslanishiga e'tibor qaratilsa, keyingi bayonda



tushuncha hayotiy qamrov darajasi kuchayadi. Ayni paytda, badiiy an'ana g'oyaviy-estetik yaxlitlikni inkor etmaydi. Asosiysi, ijodiy tadrij ibtidoiy dunyoqarash, idrok etish manzarasini yaratadi. Shu bois uni shartli ravishda ikki qismga ajratish mumkin: a) obraz o'suvchanligi; b) g'oya tizimliliigi.

Mifopoetik tasavvurda, birinchidan, taassurot aniqligi ma'no maydoni mantiqiyliigi bilan o'rin almashadi. Ikkinchidan, tahlilda hissiy ilg'am beqarorligi tasavvur barqarorligi bilan raqobatga kirishadi. Uchinchidan, kuzatish hajmining doimiy o'zgaruvchan sifat ko'rsatkichi assotsiativ xalqalarni shakllantiradi. Badiiy ifoda an'anaviyligidan ham qochishga, ham yaqinlashishga intilish, tuyg'u va kechinmani harakat-holat sinkretik silsilasida berishga urinish dunyoqarash – g'oyaviy-adabiy talqin yaxlitligini ta'min etadi.

Badiiy talqin ifodaning hissiy-shuuriy va moddiy-tarkibiy mundarijasini izohlaydi. To'g'rirog'i, tasviriy – mantiqiy – ijodiy ustqurma yaxlitligi va tasvir originalligini shakllantirish taomillari muhokama markazini birlamchi o'ringa ko'taradi. Vaholanki, adabiy munosabatda ham ma'no tarkibi, ham shakl barqarorligi, ham g'oya muvozanati mujassamlashadi. Shu nuqtai nazardan, adabiy talqin tor xususiy adabiy hodisadir, u hatto an'anaviy ifoda yo'sinida ham o'zgaruvchan faol ruhiy munosabatni ifodalaydi. Ikkinchidan, mazkur atama badiiy yaxlitlikni shakllantiradigan asosiy vosita. Shunday ekan, badiiy talqin ham shakliy mundarija, ham ma'no maydoni, ham estetik-g'oyaviy ibtidoni uyg'unlashtiradigan-umumlashtiradigan adabiy kategoriya sanaladi.

Adabiy tizimda ertak janri badiiy xususiyatlari bilan alohida tizimni tayin etadi. Odatda, ertak adabiy shakli mohiyatida inson va tabiat ruhiyati qarama-qarshiligi teranligi yetakchi estetik mezon sanaladi. Jiddiy murakkabliklar tasavvur turfaligi uyg'unligidan oziqlanadi. Adabiy tafakkurda mazkur holat epik maydon nuqtalari chorrahasida real salmoq kasb etadi. Aslida tasvir qatida inson manfaati va jamiyat ehtiyojlari birlashadi. Ayni paytda, o'zaro uyg'unlik hodisot ixtilofini keltirib chiqaradi. Shu ma'noda har bir obraz teran tarixiy ilg'amga tayanadi. Aniqrog'i, ifodada davr ruhiyati belgilari, jug'rofiy kenglik xususiyatlari qabarib ko'rinadi. Qolaversa, har bir ijodiy talqin ham tarixiy taraqqiyot, ham ijtimoiy dunyoqarashni jilvalantiradi. Mazkur ikkilikni birlashtirib turadigan g'oya ichki tafovutga barham beradi.

“Semurg” ertagida yalmog'iz universal mifologi yetakchi o'rin tutadi. U birinchidan, voqealarni uyushtiradi, ikkinchidan, qahramonlar xarakter yo'nalishini belgilaydi, uchinchidan, tahlil va talqin o'rin almashinuvini ta'minlaydi,



to'rtinchidan, g'ayritabiiy ifoda tadrijini tavsiflaydi, beshinchidan, tayanch g'oyaviy markazni shakllantirishga xizmat qiladi:

Kenja botir qilich bilan yalmog'iz kampirning boshiga uribdi. Uning kallasini shartta kesibdi. Qarasa, tanasi bir yoqda qolib, kallasi dumalab ketayotgan emish. Kenja botir kallaning ketidan quvlab ketibdi. Kalla dumalab-dumalab o'rmonzordagi bir g'orga tushib ketibdi. Kenja botir hayron bo'lib, kalla tushib ketgan joyni belgilab qo'yibdi-da, yalmog'izning tanasini ko'mib akalarining oldiga kelibdi. Ovqatni pishirib, ularning uyg'onishini kutib o'tiribdi.[1]

Parchadan ayon bo'ladiki, yalmog'iz kampir g'oyaviy ikkilangan mohiyat (g'ayritabiiy yovuz kuchlar va inson fe'l-atvori qusurlari) orasida vositachi universal mifolog sanaladi. Shu boisdan, Kenja botir ikki yoqlama ziddiyatlar og'ushida qoladi. Murakkablik obraz iroda yo'nalishini toblantiradi. Aslida mifolog ifodasi xalq e'tiqodi tashuvchisi vazifasini bajaradi. Millat maqsad-intilishlari hamisha ezgulikka yo'naltirilgan. Mavjudlik arsenali uning nafratini haddan tashqari bo'rttirishga sharoit hozirlaydi. Binobarin, muntazam takrorlanib turadigan sof mifologiya universaliyasi ana shundan dalolat beradi.

Universal mifologiya mohiyati xalq manfaat-intilishlarini birlashtiradi. Unda badiiy ifoda ma'rifat va madaniyatni jipslashtiradi. Unda tuyg'u-ong nisbati istak va imkoniyatni yaxlitlashtiradi. Unda tahlil-talqin juzvi mushohada aniqligi va tafakkur tiniqligini uyg'unlashtiradi. Qahramon xarakteri to'laqonliligiga erishish mifopoetik tafakkur adabiy mahoratni kafolatlaydi. Shu ma'noda, har bir ijodiy talqinda mujassam badiiy konsepsiya qahramon tiynatini oydinlashtiradi, asosiy obraz tadriji tasavvur chiziqlarini markazlashtiradi, tasvir tamoyillari uzvi esa epik maydon falsafiy teranliklarini umumlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek xalq ertaklari. Sehrli ertaklar. –T.: Yangi asr avlodi, 2009. – B. 49.
2. Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo'rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. O'zbek folklori. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2020.
3. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010.
4. Imomov K. O'zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
5. Ro'zimboyev S., Ro'zmetov H. Folklor atamalari qisqacha lug'ati. – Urganch, 2007.